



## O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA QOMUSIY LUG'ATCHILIK

Ashurova Feruza Axmatovna  
TDAU O'zbek tili va adabiyoti  
kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek tilshunosligida leksikogarfiyaning o'r ganilishi va tarixi haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Lug'atchilik, lug'atlarning turlari, O'rta Osiyo mutafakkirlari — Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad al Farg'oniy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa olimlarning o'zbek lug'atchiligidagi qo'shgan xissalari haqida to'xtab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** leksikografiya, qomus, ensiklopediya, umumiy lug'at, maxsus lug'at, ensiklopedist, "Fanlarning tavsifi", okean, „Devonu lug'otit turk“.

**Аннотация.** В статье приведены краткие сведения о первых энциклопедиях, лексикографии и лексикографических исследованиях в мировом языкоznании, а также лексикографии, типах словарей, сведения о деятельности мыслителей Средней Азии - Мухаммаде Мусе Хорезми, Ахмаде аль-Фергани, Абу Наср Фараби, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сине, Имам Бухари, Мирза Улугбека, Алишера Навои, Захириддина Мухаммада Бабура и других ученых в развитии узбекской лексикографии.

**Ключевые слова:** лексикография, словарь, энциклопедия, общий словарь, специальный словарь, энциклопедист, «Описание наук», океан, «Девону луготит тюрк»

**Abstract.** The article deals with the study and history of lexicography in Uzbek linguistics, as well as lexicography, types of dictionaries, information about the activities of thinkers of Central Asia - Muhammad Musa Khorezmi, Ahmad al-Fergani, Abu Nasr Farabi, Abu Raikhan Beruni, Abu Ali ibn Sina, Imam Bukhari, Mirza Ulugbek, Alisher Navoi, Zakhiriddin Muhammad Babur and other scientists in the development of Uzbek lexicography.

**Keywords:** lexicography, dictionary, encyclopedia, general dictionary, special dictionary, encyclopedist, "Description of Sciences", ocean, "Turk Lugotit Devon"

Yurtimizda jamiyatni yangilash sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda ma'naviyatni yuksaltirishga ham alohida e'tibor qaratilishining asosiy sabablaridan biri ham bugungi jarayonlarning universallashuvi, milliy qadriyatlarni soxtalashtirish, axloqsizlik g'oyalarini targ'ib qilib, xalqning ma'naviy qiyofasiga putur yetkazishga urinishlar kuchaygan bir davrda kommunikativ kompetentlik, muloqot madaniyatiga ega bo'lish – zamonaviy shaxsning muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Bunda tilning ijtimoiy vazifalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tilning ijtimoiy vazifalari bilan esa tilshunoslikning leksikografiya bo'limi ham keng shug'ullanadi.





Tilshunoslikning lug‘at tuzish masalalarini ilmiy tadqiq qiluvchi va lug‘at tuzish bilan shug‘ullanuvchi sohasi leksikografiya (gr.lexikos-co‘z, so‘zga oid va graphoyozaman) yoki lug‘atchilik deyiladi.

Leksikografiyaning vazifa doirasiga quyidagilar kiradi:

- a) lug‘at tuzish prinsiplari va metodikasini ishlab chiqish;
- b) lug‘at tiplari va turlarini aniqlash;
- c) lug‘atshunoslarning ishini tashkil qilish;
- d) lug‘at tuzish uchun asos bo‘ladigan kartoteka fondini yaratish; f) lug‘atchilik tarixini o‘rganish;
- g) lug‘at tuzish bilan shug‘ullanish [1,227].

Lug‘at maqsadi va mo‘ljaliga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

- 1) umumiylug‘at;
- 2) maxsus lug‘at.

Umumiylug‘at keng o‘quvchilar ommasiga, maxsus lug‘at esa tor doiradagi kishilar-alohida soha mutaxassisiga mo‘ljallangan bo‘ladi.

Har ikkala tur lug‘at ham o‘z o‘rnida yana ikkiga bo‘linadi:

- 1) ensiklopedik lug‘at;
- 2) filologik lug‘at.

Dastlab “ensiklopediya”, “ensiklopedik lug‘at”, “ensiklopedist”, “qomus” so‘z va birikmalariga aniqlik kiritamiz. Ushbu so‘z va birikmalar O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida quyidagicha ifodalangan:

**ENSIKLOPEDIYA** (yun.— bilimlar doirasi), qomus — muayyan tizimga solingan keng qamrovli bilimlar to‘plami, ilmiy yoki ilmiy ommabop nashr. «E.» terminining ma’nosи tarixan o‘zgarib turgan. Antik davrda u «erkin san’at» deb atalgan 7 ilm (grammatika, ritorika, dialektika yoki logika, geom., arifmetika, musiqa va astronomiya)ni anglatgan. 16-asrda G‘arbiy Yevropada E. yangi ma’noda — turli bilimlar majmuyi ma’nosida ishlatilgan. Ayni vaqtida bilimlar tasnifi ma’nosini ham bildirgan; bu ma’noda «E.» termini 18-asrda ham qo’llangan. Hoz. paytda «E.» termini fanning barcha sohalari bo‘yicha (universal E.) yoki biror tarmog‘i (soha E.si) yoxud amaliy faoliyat bo‘yicha eng muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oluvchi nashrni anglatadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida:





**Ensiklopedik.** Ensiklopediyaga oid; ensiklopediya doirasidagi; hamma ilmlarni o'z ichiga oladigan; qomusiy. *Ensiklopedik lug'at. Ensiklopedik bilimga ega bo'lgan odam.*

**Ensiklopedist** [fr. Encyclopédiste yun enkykllos paideytes – keng fanlar bo'yicha murabbiy] 1.tar.18-asrda yashagan, ilm fanning ko'p sohalarini egallagan ilg'or fransuz olimlari, faylasuflari, yozuvchilari va publitsistlari guruhiga mansub kishi (bu guruh 1751-1780 yillarda "Ensiklopediya" tuzgan va nashr etgan).

2. Ensiklopediya tuzish ishlari mutaxassis; ensiklopediyachi, qomuschi. *Bizda ensiklopedist ixtisosini sevadigan talantli yoshlar ishlaydi.* I. Mo'minov, O'l kamiz ko'zgusi.

**Ensiklopedik lug'at** – qomusiy lug'at.

**Qomus** [a okean; lug'at, so'z boyligi] 1. Mukammal to'liq lug'at. Shamsiddin Somiyning "Qomusi turkiy" lug'ati.

2. ayn. Ensiklopediya; ensiklopedik lug'at.

3. ko'chma Hayotning yoki bilimning biror sohasiga oid to'liq asar.; majmua [2,328].

3. ayn. **ensiklopedik, qomusiy.** *Mashhur ensiklopedist olim Abu Ali ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan risolalari "Tib qonunlari" dan tashqari, 31 taga yetadi.* Gazetadan. [2,42].

Tilshunos olim Abdurayim Turobov "Umumi tilshunoslik" nomli o'quv qo'llanmasida "qomus" so'zini izohlar ekan, olim S.Usmonov fikrlariga tayanib quyidagilarni bayon qiladi:

Fors millatiga mansub bo'lgan Feruzobodiyning tug'ilgan va vafot etgan yili haqida ikki xil fikr bor. Ya.V.Loya va N.A.Kondrashovda 1329-1314; V.A.Zveginsevda 1327-1403 yillar deb ko'rsatilgan. V.A.Zveginsev, Feruzobiy Sherogza yaqin joyda tug'ilgan. Sherogz, Bag'dod, Damashq va Ierusalimda ta'lim olgan. So'ngra uzoq muddat Suriya, Mesopotamiya, Misr va Hindiston safarida bo'lganligini ta'kidlaydi. [V.A.Zveginsev, 1958: 74]. Feruzobodiy 1393-yilda Sherogza boradi va buyuk sarkarda Amir Temur tomonidan izzat-ehtirom bilan qabul qilinadi. Ammo Sherogza o'sha vaqtida Feruzobodiyning ilmiy faoliyatini davom ettirishi uchun osoyishta sharoit yo'q edi. Shuning uchun u Janubiy Arabiyaga boradi va u yerda ilmiy ish bilan astoydil shug'ullanadi. Ko'p o'tmay Feruzabodiy Yamanning oliy qozisi mansabini egallaydi va Sulton al Malik qiziga uylanadi. Feruzabodiy 1403-yilda Makkaga qilgan haj safarida vafot etadi [V.A.Zveginsev, 1958: 75].





“Feruzabodiy 60 tomlik, ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, 100 tomlik lug‘at tuzgan. Biroq bu ulkan lug‘at bizgacha yetib kelmagan. Muallif shu lug‘at asosida boshqa lug‘at tuzgan. Bu lug‘atni “Qomus” (“Okean”) deb atagan. Ma’lumki, keyinchalik lug‘atlar shu nom bilan, ya’ni “Qomus” deb ataladigan bo‘ldi” [S.Usmonov 1972: 47]. Arab lug‘atchiligi taraqqiyotining o’sha davridagi cho‘qqisi hisoblangan va arab tilining “Sab’atu abxur” (“Yetti dengiz”) nomli lug‘atini tuzishda Alisher Navoiy ham ijodiy foydalangan bu “Qomus” Qo‘qondan topildi. O‘zbek matbuoti uni “Charm muqova ichidagi javohir” deb baholadi [3-58]. Garchi “Ensiklopediya” atamasi ko‘proq universal ko‘p jiddilarga nisbatan va ensiklopedik nashrlarga nisbatan qo‘llanilsa-da, hozirgi kunda “entsiklopedik lug‘at” va “entsiklopediya” atamalari sinonim hisoblanadi .[4,73]. “Ensiklopediya” atamasining o‘zi 16-asrda qo‘llanila boshlagan bo‘lsa-da, ensiklopedik asarlar qadimdan ma’lum. Ensiklopedik tarzdagi asarlar qadimiy Shumer davlatida, Xitoy, Yunoniston, qadimiy Rimda, keyinchalik arab yozuvidagi mamlakatlarda, xususan, Movarounnahrda paydo bo‘lgan.

O‘rta Osiyo mutafakkirlari— Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad al Farg‘oniy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari ham o‘z davridagi bilimlarni atroflicha qamrab olgan. Imom Buxoriyning „Sahihi Buxoriy“si, Forobiyning „Fanlar tasnifi“, Beruniyning „Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“, Ibn Sinoning „Tib qonunlari“, „Donishnoma“si, Yusuf Xos Hojibning „Qutadg‘u bilig“, Mahmud Koshg‘ariyning „Devonu lug‘otit turk“, Alisher Navoiyning „Majolis un-nafois“, Davlatshoh Samarqandiyning „Tazkirat ush-shuar“, Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ asarlari qomuschilik tarixiga qimmatbaho hissa bo‘lib qo‘shilgan. Tilshunos olim S. Usmonovning: Abu Nasr Forobi (IX—X asr) arab tilida birinchi marta «Fanlarning tavsifi» deb ataladigan chindan ham ensiklopedik asar yaratganligi ma’lum. O‘rta asr Yevropasi Aliboropa deb atagan xorazmlnk ulug olim Abu Rayhon Muhammad bin Ahmad al Beruniy (973—1048) esa «O‘tmish avlodlar yodgorligi» nomli ensiklopedik asar yozdi [5,48] deb aytgan ma’lumotlar fikrimiz tasdig‘idir. Turkiy xalqlar ichida o‘zbeklarning madaniy merosi eng boy hisoblanadi. Mavjud qo‘lyozmalarning bir qismini qadimgi qomuslar tashkil qiladi. Tbilisi, Leningrad, Boku, Toshkent shaharlaridagi qo‘lyozma xazinalaridagi Fath Alixonning «Kitobi lug‘ati atrokiya», Tole Hiraviyning «Badoye-ul-lug‘at», Muhammad Xuyinning «Xulosai Abbosi» va boshqa lug‘atlar ana shular





jumlasidandir. Qadimiy qomuslardan bir qismi vatanimizdan tashqarida Istanbul, Vena, London, Tehron kutubxonalarida saqlanmoqda. Ayniqsa, chet el xazinalarida saqlanayotgan qomuslar tarixi va ma'naviy qimmati jihatidan alohida ahamiyatga ega.

O'zbek xalqi tarixiga doir «Abushqa» lug'atining tarixi va kotibi ko'rsatilgan eng qadimgi nusxasi Vena shahri kutubxonasida saqlanmoqda. Muhammad binni Sodiq tomonidan ko'chirilgan bu nusxa 1552 yilda kitobat qilingan. Shuningdek, «Sangloh» lug'atining eng mo'tabar nusxasi London kutubxonasidadir. Shuningdek, bu qomuslarda xalqimizning urf-odatlari, rasm-rusumlari haqida ham so'z yuritilgan [6,6]. O'rta asr sharq lug'atchiligining boy an'analari ruhida tuzilgan bu lug'atlar qomusiy xususiyatga ega bo'lib, o'zbek xalqi hayotida alohida o'rin tutadi. Lug'atlarda o'zbek tili va adabiyotiga oid juda ko'p ma'lumotlar bor. Ular eski o'zbek tilini ilmiy jihatdan o'rganish borasida asosiy manba hisoblanadi. Bu qomuslarda o'zbek tili, adabiyotidan tashqari, tarixchilar, etnograflar, faylasuflar, geograflar uchun ham juda qiziqarli va zarur ma'lumotlar saqlangan. Masalan, 1759—1760 yilda kitobat qilingan «Sangloh» lug'atida Olmaliq, O'sh, Orol kabi mashhur shaharlar bilan birga Abulxon tog'i, Arnakka o'xshash kam ma'lum bo'lgan joy nomlari haqida va 96 bog'li o'zbek urug'lardan: ochamayli, sariq po'stin, arlot, barlos, qiyot kabi urug'lari haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan.

XX asrning 20-yillarida xalq og'zaki ijodining katta bilimdoni shoir tarjimon, pedagog Mashriq Yunusov – Elbek: Bu kungacha xalq adabiyotini (etnografiyasini) yig'ish to'g'risida og'zimiz tinmay so'zlab kelsa-da, buni ishga oshirishga hamon ko'chganimiz yo'q. adabiy qimmati va ichiga olgan chuqur ma'nolari bilan ko'ngilni o'ziga torturgan matal, ertak, cho'pchak, jumboq va laparlarimiz bukun o'z-o'zidan yo'qolib bormoqdadur", - -deb og'zaki ijod namunalarini to'plash va nashr etish masalasini kun tartibiga jiddiy qo'ygan va o'zi ham katta hajmda xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plashni boshlagan. "Maorif va o'qituvchi" jurnali sahifalarida muntazam e'lon qilmoqda edi. Bunday xayrli ishda ayniqsa Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiri, Qayum Amazon kabi atoqli tilshunos olimlarimiz katta faoliyat ko'rsatmoqda edilar. Afsuski, ularning bu xayrli harakatlari mash'um qatag'on to'fonlarida yo'q bo'lib ketdi. [7,13].

60-yillarning oxiridan sobiq ittifoqdosh respublikalarda universal ensiklopediyalar nashr etishga kirishildi. Jumladan, O'zbekistonda 1971—80 yillarda 14 jildli „O'zbek sovet ensiklopediyasi“ (O'zSE)nashr etildi. Uning birinchi bosh





muharriri akademik I.M.Mominov bo'lib, 10-jiddan akademik K.A.Zufarov bu vazifani bajargan. Unda jami 40000 dan ortiq maqola berilgan. O'zSE maqolalarining ilmiy-nazariy va g'oyaviy-siyosiy yo'nalishi markscha-leninchcha mafkura bilan belgilangan. Bu haqda tilshunos olim A.Nurmonov shunday fikr bildiradi: 70-yillarda o'zbek ensiklopediyasining yaratilishi o'zbek leksikografiyasining ulkan yutug'i sanaladi. Bu lug'at o'zbek leksikografiysi tarixida ilk qomusiy lug'at bo'lganligi bilan qimmatlidir. Shunday bo'lishiga qaramasdan unda ham sovet voqeligi, sho'rolar siyosati to'la aks etganligi uchun tariximiz, milliy an'analarimiz, ma'naviy merosimiz buzib ko'rsatildi. Shuning uchun mustaqillik davrida milliy ensiklopediyani yaratish eng muhim vazifa qilib qo'yildi. Uning 1-jildining nashr etilishi ma'naviy hayotimizda katta voqeа bo'ldi [8,13].

SSSR parchalanib ketgandan keyin undan ajralib chiqqan mustaqil mamlakatlar ichida birinchilardan bo'lib O'zbekiston Respublikasida universal milliy ensiklopediya tayyorlashga kirishildi. 1997-yil 20-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyotini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilib, nashriyot zimmasiga 12 jildli „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi“ni tayyorlash va nashr etishni topshirdi. So'nggi yillarda O'zbekistonda, shuningdek, „Toshkent“ ensiklopediyasi, 1 jildli Bolalar ensiklopediyasi, Xotin-qizlar ensiklopediyasi, „Islom“ ensiklopediyasi va ba'zi fan tarmoqlaridan soha ensiklopediyalari nashr etildi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshkent "Talqin"2005.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.2020. 5 tomlik.
3. Abdurayim Turobov. Umumiyl tilshunoslik. O 'quv qo'llanma. Samarqand -2020..
4. B.B. Dubinin. Leksikografiya russkogo jazyka. Учебное пособие Москва Издательство «Флинта»Издательство «Наука» 2008.
5. S.Usmonov Umumiyl tilshunoslik. Pedagogika institutlarining Filologiya fakultetlari uchun darslik. O'qituvchi nashriyoti. Toshkent- 1972.
6. E. Umarov. Qomuslar — madaniy boyligimiz. Guliston jurnali,1990.6-sون.
7. Sh. Shomaqsudov, S. Dolimov, U. Dolimov. Keng uyning kelinchagi. "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, Toshkent -2020.
8. Abduhamid Nurmonov. O'zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent - O'zbekiston -2002.

